



MASHQ DAFTARI 4

4-sinf o'quvchilarining o'qish
savodxonligini baholash bo'yicha
o'tkaziladigan PIRLS xalqaro
tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish
uchun

Hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi/
Viloyat/Toshkent shahar)

Tuman (shahar) _____
_____–sonli maktabning _____–sinf
o'quvchisi _____



Yoʻriqnoma

Hurmatli oʻquvchi! Siz ushbu mashq daftarini bajarish uchun unda berilgan hikoya yoki maqolalarni oʻqib chiqishingiz va oʻqiganlaringiz yuzasidan savollarga javob berishingiz lozim boʻladi. Baʼzi savollar osonroq va baʼzilari esa murakkabroq boʻlib tuyulishi mumkin. Siz barcha savollarga javob berishga harakat qiling.

Siz turli xil savollarga javob berishingiz kerak boʻladi. Ayrim savollarga 4 ta variantdan iborat boʻlgan harflar bilan belgilanadigan javoblar keltiriladi. Siz oʻzingizning fikringizga koʻra toʻgʻri javobga tegishli boʻlgan harfni belgilang.

1 – namunada shunday savol berilgan va namuna tarzda javobni qanday belgilash koʻrsatilgan.

1-namuna

1. Bir haftada necha kun bor?

☐ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Javobda “C” harfi belgilangan, chunki bir haftada 7 kun bor. Agarda sizning javobingiz toʻgʻriligiga ishonchingiz komil boʻlmasa, sizning nazaringizda eng toʻgʻridek koʻringan javobni tanlab, keyingi topshiriqqa oʻtishingiz mumkin.

Agar siz tanlagan javobingizni oʻzgartirmoqchi boʻlsangiz, uning ustiga chizing va toʻgʻri deb hisoblagan boshqa javobingizni belgilang hamda keyingi savolga oʻting. Buni qanday bajarishni 2 – namunada koʻrishingiz mumkin.

2-namuna

2. Bir haftada necha kun bor?

☒ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Ayrim vazifalarni bajarishda o'z javobingizni savolning tagidagi maxsus ajratilgan joyga yozishingiz kerak bo'ladi. 3 – namunada shunday savol keltirilgan.

3-namuna

3. Hikoyada aytilayotgan voqea yilning qaysi faslida bo'lib o'tgan?



3-namunada qalam va uning yonida 1 raqami tasvirlangan. Ushbu belgi mazkur savol uchun siz 1 ball olishingiz mumkinligini bildiradi.

4-namunada qalam va uning yonida 3 raqami tasvirlangan. Demak, ushbu savolning to'g'ri javobi uchun 3 ball olishingiz mumkin.

4-namuna

4. Aynan nima hikoyaning oxirini bir vaqtning o'zida ham qayg'uli ham zavqli qilmoqda? O'qiganlaringiz bo'yicha olgan ma'lumotlaringizdan foydalanib, o'z fikringizni tushuntirib bering.



Daftar ikki qismdan iborat. Har bir vazifani bajarishga 40 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir vazifaning o'rtasida kichik tanaffus beriladi.

Hamma savollarga imkon qadar yaxshiroq javob berishga harakat qiling. Agar siz birorta savolga javob bera olmasangiz, keyingisiga o'tishingiz mumkin.



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

Bo'sh gultuvak

*Elaine L. Lindy tomonidan qayta hikoya qilingan
Suratlar muallifi Jennifer Moher*

Xitoy imperatori o'z taxtining keyingi merosxo'rini tanlash uchun musobaqa e'lon qildi. Imperator qarigan va bolasi yo'q edi. Imperator o'simliklarni yaxshi ko'rganligi sababli, u imperator bo'lishni istagan har qanday bola bitta qirollik urug'ini olish uchun saroyga kelishi kerakligini aytdi. Olti oy ichida qaysi bola eng yaxshi natijalarni ko'rsata olsa, musobaqada g'olib bo'ladi va keyingi imperatorga aylanadi.



Hayajonni his qilishingiz mumkin! Urug'lar tarqatiladigan kuni, saroyni umidvor bolalarning olomoni to'ldirdi. Har bir bola bitta bebaho imkoniyatga ega bo'lgan holda uyga qaytdi.



Jun ismli bola bilan ham shunday bo'ldi: u allaqachon qishloqdagi eng yaxshi bog'bon hisoblanar edi. Junning qo'shnilari uning bog'idan qovun, karam va no'xatni baham ko'rishni yoqtirishardi. Jun imperator urug'ini tushib ketmasligi uchun qo'llarida qattiq qisib, shu bilan birga ezilib ketmasligi uchun avaylab uyiga olib keldi.



Uyda u gultuvakning pastki qismini katta toshlar bilan to'ldirdi, keyin ularni kichkina toshlar bilan qopladi, so'ng gultuvakka nam tuproq soldi. U urug'ni tuproq ichiga bir necha santimetr chuqurlikka ekdi va uni ozgina tuproq bilan qopladi. Keyingi bir necha kun ichida Jun va u bilgan har bir bola har kuni o'z gultuvagini sug'ordi va gultuvak yuzasidan birinchi barg chiqishini kuzatishdi.

Junning qishlog'idagi Chun ismli bola o'z urug'ining o'sib chiqqanini xabar qilgan birinchi bola bo'ldi. Bu yangilik tabriklar bilan kutib olindi. U men albatta keyingi imperator bo'laman deb maqtanardi va o'z qirollik mahoratini o'zidan yoshroq bolalarga xo'jayinlik qilib shakllantirar edi. Ming ismli bola mitti o'simlik o'zining gultuvagidan paydo bo'lgan keyingi bola bo'ldi, undan so'ng esa Vong ismli bola. Jun hayron bo'ldi - bu bolalarning hech biri u kabi o'simlik o'sтира olmas edi! Ammo Junning urug'i o'smadi.

Ko'p o'tmay, butun qishloqda gultuvaklardan novdalar unib chiqdi. Bolalar gultuvaklari atrofiga ularni bexosdan yoki ataylab ag'darib yuborishi mumkin bo'lgan odamlardan himoya qilish uchun to'siqlar qurishdi. Tez orada Junning qishlog'idagi o'nlab novdalar ilk yaproqlarini chiqara boshladi. Ammo Junning urug'i o'smadi. U hayron edi - qayerda xatolik bo'ldi? Jun ehtiyotkorlik bilan o'z urug'ini bog'idagi eng yaxshi va eng boy qora tuproq bilan to'ldirilgan yangi gultuvakka o'tqazdi. U tuproqning har bir uyumini mayda zarrachalarga maydaladi. U urug'ni ehtiyotkorlik bilan ekdi, tuproqning yuqori qismini nam holatda tutdi va har kuni gultuvakni kuzatib bordi. Junning urug'i hamon o'smas edi.

Tez orada Junning qishlog'idagi boshqa bolalar parvarish qilgan gultuvaklardan kuchli va mustahkam poyalar o'sib chiqdi. Jun xafa va yengilgan edi. Boshqa bolalar uning ustidan kulishdi.

Oradan olti oy o'tdi. G'olibni aniqlash uchun bolalar saroyga o'z o'simliklarini olib kelishlari kerak bo'lgan kun yaqinlashdi. Ular gultuvaklarini yarqiraguncha tozalashdi, o'simliklarining katta barglarini ehtiyotkorlik bilan artishdi va eng yaxshi kiyimlarini kiyib olishdi. Ba'zi ota-onalar bolalarining yonida gultuvaklarni ag'darilib ketmasligi uchun tik ko'tarib olgancha borishardi.

"Men endi nima qilaman?" - Jun saroyga g'alaba bilan qaytishga tayyorgarlik ko'rayotgan boshqa bolalarga derazasidan qaragancha ota-onasiga faryodini aytardi. "Mening urug'im o'smadi! Mening gultuvagim bo'sh!"

"Sen qo'lingdan kelganini qilding", - dedi otasi bosh chayqab.

"Jun, imperatorga faqat gultuvagingni olib bor, - dedi onasi, - sen axir qo'lingdan kelgancha harakat qilding".



Uyalib ketgan Jun bo'sh gultuvakni saroyga ko'tarib ketarkan, uning o'ng va chap tomonida ulkan o'simliklari bor gultuvaklarini ko'tarib olgan xushchaqchaq bolalar borishar edi.

Saroyda bolalar gullagan o'simliklari bilan qatorlarga saf tortdilar va hukm e'lon qilinishini kutdilar. Shoyi xalat kiyib olgan imperator, umidvor nomzodlar qatoridan o'tib borar ekan, har bitta o'simlikka qovog'ini uygancha qarab borardi. Junning oldiga kelgach, u yanada qovog'ini uyib, shunday dedi: "Bu nima? Sen menga bo'sh gultuvak olib keldingmi?"

Jun yig'idan o'zini zo'rg'a tiydi. "Olampanoh ruhsat bersangiz, men bor kuchimni sinab ko'rdim. Men sizning urug'ingizni o'zim topa olgan eng yaxshi tuproqqa ekdim, uning namligini saqlab, unga har kuni qaradim. Urug' unib chiqmagandan so'ng, men uni yangi tuproqqa qayta ekdim. Ammo u o'smadi. Meni kechiring". Jun boshini egdi.

"Hm", - dedi imperator. Hamma eshitishi uchun o'girilib, baland ovozda shunday dedi: "Men bu bolalar o'z urug'larini qayerdan olganliklarini bilmayman. Men sizlarga bergan urug'lardan hech narsa o'smas edi, chunki urug'larning hammasi qaynatilgan edi!"

Imperator Junga jilmayib qarab qo'ydi.

1. Nima uchun imperator musobaqa o'tkazdi?

- Ⓐ bolalarga o'simliklar haqida o'rgatish uchun
- Ⓑ keyingi imperatorni tanlash uchun
- Ⓒ o'zining qanchalik qudratli ekanligini ko'rsatish uchun
- Ⓓ eng yaxshi o'simlik turini topish uchun

2. Har bir bola imperatordan nimani oldi?







3. Nima uchun har bir urug' "bebaho imkoniyat" deb ataldi?

- Ⓐ Har bir urug' musobaqada yutish imkonini berar edi.
- Ⓑ Har bir urug' qirollik urug'i edi va juda qimmat edi.
- Ⓒ Har bir urug' chiroyli o'simlikka aylanishi mumkin edi.
- Ⓓ Har bir urug' eng yaxshi bog'bon bo'lish imkonini berardi.

4. Ushbu barg rasmining yonidagi hikoyaning qismini toping:  .
Junning qishloqdagi eng yaxshi bogʻbon ekanligini nima koʻrsatib turibdi?



5. Bulardan qaysi biri Jun urugʻni ilk marta ekkandagi gultuvakka koʻproq oʻxshaydi?



6. Ushbu gul rasmi yonidagi hikoyaning qismini toping: . Ushbu parcha Jun haqida nimani ko'rsatmoqda?

- Ⓐ u nima o'sishi mumkinligi haqida qiziqayotganligini
- Ⓑ u musobaqada g'olib bo'lishi mumkinligini his etayotganligini
- Ⓒ u urug'ni ehtiyotkorlik bilan ekkanligini
- Ⓓ u urug'ni ekishda xatoliklarga yo'l qo'yganligini

7. Nima uchun bolalar gultuvaklarining atrofiga to'siqlar qurishdi?

- Ⓐ barglarni toza saqlash uchun
- Ⓑ ularning o'simliklarini ag'darib yubormasliklari uchun
- Ⓒ tuproqni nam holatda saqlash uchun
- Ⓓ boshqa bolalar ularning o'simliklarini ko'rmasliklari uchun

8. Urug'i o'smagan paytda Jun birinchi bo'lib nima qildi?

- Ⓐ U gultuvagi atrofiga to'siq qurdi.
- Ⓑ U urug'ni tez-tez sug'orib turdi.
- Ⓒ U ota-onasiga shikoyat qildi.
- Ⓓ U urug'ni yangi gultuvakka qaytadan ekdi.

9. Nima uchun boshqa bolalar Junning ustidan kuldi? Javobingizni tushuntirish uchun hikoyada nima bo'lganidan foydalaning.



10. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun Junning ota-onasi unga bo'sh gultuvakni saroyga olib borishini aytishdi?



11. Qaysi so'z Junning hukm e'lon qilinishi uchun saroyga borganida nimani his qilganini yaxshi tasvirlaydi?

- ☐ (A) uyalgan
- ☐ (B) hayron
- ☐ (C) umidvor
- ☐ (D) hayajonlangan

12. Nima uchun imperator Junning gultuvagiga qaraganda qovog'ini uydi?

- Ⓐ U musobaqadan xavotirda edi.
- Ⓑ Junning gultuvagi yetarlicha yarqiramagan deb o'yladi.
- Ⓒ U nimani o'ylayotganini yashirayotgan edi.
- Ⓓ Jun nima uchun bu yerda ekanligini tushunmadi.

13. Nima uchun Jun imperatorga "Meni kechiring" dedi?

- Ⓐ U musobaqada g'irromlik qilgandi.
- Ⓑ U imperator bo'lishni xohlamagandi.
- Ⓒ U imperatorning hafsalasini pir qildim deb o'ylagandi.
- Ⓓ U urug'ini tez-tez sug'organdi.

14. Nima uchun boshqa bolalarning gultuvaklaridagi o'simliklar o'sdi?

- Ⓐ Boshqa bolalalar yaxshiroq tuproqdan foydalanishdi.
- Ⓑ Boshqa bolalar gultuvaklariga qarab turishdi.
- Ⓒ Ularning urug'lari to'siqlar bilan himoya qilingan edi.
- Ⓓ Ularning urug'lari boshqa yangi urug'lar bilan almashtirilgan edi.

15. Sizningcha, imperator insondagi qaysi xususiyatni eng ko‘p qadrlaydi?

- ☐ A) qirollik mahoratiga ega bo‘lishni
- ☐ B) rostgo‘y odam bo‘lishni
- ☐ C) ota-onalarini hurmat qilishni
- ☐ D) yaxshi bog‘bon bo‘lishni

16. Nima uchun Imperator Junga jilmaydi?



17. Hikoya davomida Jun turli tuyg'ularni his qildi. O'qiganlaringizdan foydalanib, nega Jun bu tuyg'ularnining **har birini** his qilganini tushuntirib bering.



umidvor



hayron



yengilgan



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

"Bo'sh gultuvak" Elaine L. Lindy tomonidan qayta hikoya qilingan, manba "Absolutely Whootie: Stories to Grow By" (<http://www.storiestogrowby.com>). Suratlar muallifi Jennifer Moher ©2010 IEA.

Asal qayerda?

Odamlar va yovvoyi qushlar birgalikda ishlashi mumkinmi? Sharqiy Afrikada asalxo'r deb nomlangan qush odamlarga asal topishga yordam beradi.



Asalxo'r qush asal mumi va lichinkalarini (asalari bolalari) yeyishni yaxshi ko'radi va har doim yaxshi asalari uyasini qayerdan topishni biladi. Ammo qush juda kichkina bo'lganligi uchun asalari uyasi ichidagi eng mazali yegulikni olish uchun uyani buza olmaydi. Xuddi shu yerda boran aholisi ishga kirishadi. Ular barcha taomlarini o'zlari tayyorlaydilar va ba'zida yangi asalni xohlaydilar. Asal olish uchun ular yovvoyi ari uyasini topishlari va uyadan asalni o'zlari olishlari kerak. Ammo kimsasiz joyda asalari uyalarini topish qiyin bo'lishi mumkin. Yaxshiyamki, boranlarga yordam beradigan asalxo'r qush bor.



Yovvoyi asalarilar uyalarini daraxt tanasi ichiga quradilar.

Asalxo'r qush bilan tanishish

Asalxo'r qushga qarab uning biron-bir alohida xususiyati bor deb o'ylamaysiz. Bu qush dum qismida oq dog'lari bor xira jigarrang-kulrang qush.



Navdada turgan asalxo'r qush.

Uning kichkina boshi va kalta tumshug'i bilan uzunligi taxminan yigirma santimetr. Asalxo'r qush har doim asalari uyasiga kira olmaganligi sababli u meva, qurt va boshqa hasharotlarni ham yeydi.



Boran xalqi bilan tanishish

Boran xalqi Sharqiy Afrikada yashaydi. Ularning uylari shoxlardan qilingan va o't bilan qoplangan. Boran aholisi ularga go'sht va sut beradigan chorva mollarini boqish bilan mashhur. Sharqiy Afrikadagi yerlar quruq, chorva mollari yil davomida bitta joyda yashab yeyishlari uchun yangi maysalar yetarli emas. Shuning uchun, yiliga uch yoki to'rt marta, boran xalqi o'z chorva mollari bilan yangi joyga ko'chib o'tishadi. Ular uylarini katta qismlarga ajratib, o'zlari bilan olib ketadilar. Ular yangi joyga ko'chib kelganlarida, uylarini qaytadan qurishadi. Ammo ularning yerlari yanada qurib borayapti va boran xalqi yetarlicha yangi maysazor topishga qiynalmoqda. Shu sababli, ba'zi bir boranlar shahar va shaharchalarda yangi hayot izlay boshlamoqda.



Asal ovi

Qush yoki boranlar asal oviga bormoqchi bo'lsa, ular bir-birini chaqirish usuliga ega. Boranlarda bir kilometrdan uzoqroq masofadan eshitilishi mumkin bo'lgan maxsus hushtak bor. Asalxo'r qush esa odamlarni ikkita ohangni takror va takror sayrab chaqiradi: *tirr-tirr*, *tirr-tirr!*



Asalxo'r qushga hushtak chalayotgan boran.

Boranlar va asalxo'r qush tayyor bo'lgach, ov boshlanadi. Qush ko'zdan g'oyib bo'ladi. Keyin u qaytadi va ko'rinadigan joylarga qo'nadi. Odamlar yaqinlashishi bilan u dumidagi oq patlarini ko'rsatib, oldinga uchadi.

Asalxo'r qush boranlarga asalari uyasining yerga yaqinligini daraxtzorlar ostidan uchib o'tib bildiradi. Agar u balandroq uchsa, bu asalari uyasi daraxtda ekanligini anglatadi.

Keyin u yana qo'nadi va kutadi. Boranlar qushning ortidan borayotganliklarini shovqin qilish orqali bildirishadi. Ular hushtak chalishadi, yog'och bilan daraxtlarga urishadi va baland ovozda gapirishadi.

Ular asalari uyasiga yaqinlashgani sari, asalxo'r qush tez-tez qo'nadi. Shuningdek, u yerga yaqinroq qo'nishni boshlaydi. Boranlar yaqinlashib qoldik desalar ham bo'ladi.

Nihoyat, asalari uyasiga yetib borganda, asalxo'r qush yangi shovqin chiqaradi. U boranga "Ey, biz shu yerdamiz!" deydi sayrashlar orasidagi uzoq to'xtamlar bilan yumshoq ohangda. Ba'zan u uyaning atrofida aylanib uchadi.

Boranlar olov yoqadi. Tutayotgan shoxlar bilan ular asalarilarni tashqariga chiqarib tashlashadi. Keyin ular uyani buzib ochadilar va asalni yig'ib oladilar. Ular o'zlarining asalxo'r qushlariga juda ko'p mum va lichinkalar qoldirishadi.



Asalxo'r qush afsonasi

Boranlar, agar siz uyani ko'rsatgani uchun asalxo'r qushga mukofot sifatida yegulik qoldirmasangiz, nima bo'lishi haqida hikoya aytib beradilar. Keyingi safar unga ergashganingizda, asalxo'r qush sizni juda xavfli narsaga yetaklab boradi - masalan daraxtdagi qoplonga!



Ikki tomonlama yutuq

Boranlar aytadiki, qushning yordamisiz asalari uyasini topish uchun deyarli to'qqiz soat vaqt sarflanadi. Ba'zan ular umuman asalari uyasini topa olmaydilar. Ammo asalxo'r qush yo'l boshchiligida, ov uch soat davom etadi va ular deyarli har doim uyani topadilar. Boranlarsiz esa qush asalari uyasining old qismini biroz cho'qiy oladi xolos. Ammo odamlarning yordami, tutunlari va asboblari bilan asalxo'r qush ko'proq ozuqaga ega bo'ladi!

Yolg'iz holatda

Asalxo'r qushlar ba'zida asalari uyalariga yolg'iz boradilar. Bunda ular asalarilar karaxt payti, bulutli va salqin tonglarni tanlaydilar. Keyin ular to'g'ridan-to'g'ri asalari uyasiga uchadilar, ammo uyada uzoq vaqt qolmaydilar. Ularni asalarilar chaqishi mumkin va ular ko'p yegulik olisholmaydi.

O'tmish va kelajak

Odamlar va asalxo'r qushlarning birgalikda ishlash usullari shunchalik samaraliki, olimlar ular uzoq vaqtdan buyon shunday qilishgan deb o'ylashadi. Qoyatosh rasmlari bizga afrikaliklar 20 ming yildan beri asal ovlaganliklarini aytib beradi.



Ammo qush va inson o'rtasidagi bu sheriklik xavf ostida. Hozir ko'plab asalxo'r qushlar odamlarga ruxsat etilmagan tabiat qo'riqxonalarida yashaydilar. Boranlar esa do'kondan bir to'rva shakarni sotib olish asal ovlashdan ko'ra osonroq bo'lgan shaharlarga

ko'chib o'tmoqda. Asalxo'r qushni insonlarning orqa hovlilarida turib ularni chaqirganini va hech qanday javob olmaganini ko'rish mumkin.

1. Boranlar va asalxo'r qush asalari uyalaridan nimani olib yeydilar?



Boranlar



Asalxo'r qush

2. Boranlar va asalxo'r qush bir-birlariga yordam berish uchun nima qilishadi?



Boranlar



Asalxo'r qush

2

1

0

8

9

2

1

0

8

9

3. Nima uchun boranlar yiliga uch yoki to'rt marta ko'chishlariga to'g'ri keladi?

- ☐ (A) suv topish uchun
- ☐ (B) asal topish uchun
- ☐ (C) chorva mollarini boqish uchun
- ☐ (D) go'sht va sut sotish uchun

4. Boran uylari qurilishida ishlatilgan **ikkita** narsani yozing.

-  1. _____
2. _____

5. Quyidagilardan qaysi birini matnning *Boran xalqi bilan tanishing* qismidan bilib olish mumkin?

- ☐ (A) nima uchun boranlarga tabiiy qo'riqxonlarga kirishi mumkin emasligini
- ☐ (B) nima uchun boranlar uzoq vaqtdan buyon asal ovlashini
- ☐ (C) nima uchun boranlar shaharlarga ko'chayotganini
- ☐ (D) nima uchun boranlar olimlar tomonidan o'rganilganligini

1
0
8
9

6. Boranlar asalxo‘r qushni qanday chaqirishadi?
- (A) Ular tutundan belgilar sifatida foydalanishadi.
 - (B) Ular yog‘och bilan daraxtga urishadi.
 - (C) Ular maxsus hushtakdan foydalanishadi.
 - (D) Ular qushni o‘z nomi bilan chaqirishadi.

7. Asalxo‘r qush turli xil ishlarni bajarish orqali turli xil xabarlarni boranlarga yuboradi. Jadvalni to‘ldirish uchun bo‘sh joylarni to‘ldiring.

	Asalxo‘r qush nima qiladi	Bu boranlarga nimani anglatadi
	Daraxtzorlar ustidan uchib o‘tadi	
		Ular asalari uyasiga yaqinlashib qolishdi.
		Ular asalari uyasiga yetib kelishdi.

1
0
8
9

1
0
8
9

1
0
8
9

8. Nima uchun boranlar olov yoqishadi?

- Ⓐ qushni asalari uyasiga olib borish uchun
- Ⓑ asalarilarni uyani tark etishga majburlash uchun
- Ⓒ asalarilar uyasini buzib ochish uchun
- Ⓓ asalarilar uyasini topganliklarini ko'rsatish uchun

9. *Asalxo'r qush afsonasining asosiy mazmuni nima?*

- Ⓐ Siz asalxo'r qushni mukofotlashingiz kerak.
- Ⓑ Asalxo'r qush juda aqlli qush.
- Ⓒ Siz har doim asalxo'r qushga ergashishingiz kerak.
- Ⓓ Asalxo'r qush xavfli bo'lishi mumkin.

10. Nima uchun asalxo'r qush yakka o'zi asalari uyasiga ertalab boradi?

- Ⓐ Asalari uyasini topish osonroq.
- Ⓑ Lichinkalar ko'proq bo'ladi.
- Ⓒ Asalarilar uyasida bo'lmaydi.
- Ⓓ Asalarilarning chaqib olish ehtimoli kamroq.

11. Odamlar boranlar va asalxo'r qushning ming yillar davomida birga ishlaganligini ko'rsatadigan nimalarni topishgan?



12. Nima uchun qush va inson o'rtasidagi sheriklik xavf ostida?

- (A) Boranlarga endi asalxo'r qushning zarurati bo'lmasligi mumkin.
- (B) Asalxo'r qush boranlarga ergashishni to'xtatdi.
- (C) Boranlar endi asalni yaxshi ko'rmaydi.
- (D) Asalxo'r qush boshqa turdagi yeguliklarni topdi.

13. O'qiganlaringizdan foydalanib, agar boranlarnig ko'pchiligi shaharlarga ko'chib ketsa, kelajakda asalxo'r qushlar nima qilishi kerak bo'lishini tushuntiring.





To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.



“Bo’sh gultuvak” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?

Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

“Asal qayerda?” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?

Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

